Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii



O'ZBEKISTONDA OILAVIY MUNOSABATLAR BUZILISHINING GENDER JIHATLARI

Mamajanova Shaxnoza

Annotatsiya: O'zbekistonda oilaviy munosabatlar buzilishining gender jihatlari falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Oilaviy nizolar va ajrimlarga ta'sir etuvchi gender stereotiplari, ijtimoiy rollarning o'zgarishi hamda zamonaviy qadriyatlar transformatsiyasining oila barqarorligiga ta'sir etuvchi gender stereotiplari, ijtimoiy rollarning o'zgarishi hamda zamonaviy qadriyatlar transformatsiyasining oila barqarorligiga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, oilada adolat, gender tengligi, o'zaro hurmat va mas'uliyat tamoyillarining falsafiy mohiyati ochib beriladi. Ushbu tezis orqali oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda gender madaniyatni rivojlantirish, sog'lom oilaviy qadriyatlarni qo'llab quvvatlash va falsafiy yondashuvlardan samarali foydalanish zarurligi haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy munosabatlar, gender, gender tengligi, falsafa, oilaiy qadriyatlar, gender stereotiplar, oila barqarorligi, ijtimoiy taraqqiyot.

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy insitutlardan biri bo'lib, uning barqarorligi jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda oilaviy munosabatlarning buzilishiga sabab bo'layotgan omillar faqat erkak va ayolning huquq va majburiyatlari bilan emas, balki jamiyatda shakillangan qadriyatlar, urf-odatlar hamda ijtimoiy kutishlar bilan ham bog'liq. So'ngi yillarda ayollarning ta'lim olish va mehnat bozoridagi faolligi ortib, oiladagi an'anaviy rollar qayta shakillanmoqda. O'zbekistonda oilaviy munosabatlarning barqarorligi nafaqat iqtisodiy yoki maishiy hayotda, balki oilada er-xotin o'rtasida shakillangan gender rollar va o'zaro munosabatlar tizimida ham o'z ta'sirini ko'ratadi.

Oiladagi tazyiq va zo'ravonlik gender tengsizligining jiddiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, u oilaviy munosabatlarning buzilishiga va oila a'zolarining ruhiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.[1] An'anaviy qarashlarda erkaklar ko'proq oilaning moddiy ta'minotchisi, ayol esa uy-ro'zg'or va farzand tarbiyachisi uchun asosiy mas'ul shaxs sifatida tasavvur qilingan. Bunday ro'llarning qat'iy shakillanishi ayrim oilalarda vazifaning teng taqsimlanmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ayol va erkakning oiladagi vazifalari, mehnati va mas'uliyatiga oid an'anaviy qarashlar zamonaviy hayot talablari bilan mos kelmaganda nizolar paydo bo'lishi mumkin. Masalan, ayolning ham ishlashi, kasbiy rivojlanishi va oilaviy mas'uliyatni bajarishi bilan bog'liq kelishmovchiliklar. Oilaviy mas'uliyat, muomala madaniyati, moliyaviy majburiyatlar va nizolarni hal qilish

[1]O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-561-son, 2019-yil 2-sentabr

Email:

conference@houghtonstreetreview.com

Website:

www.houghtonstreetreview.com/index.php/conference

© 2026 International Online Conference on Multidisciplinary Academic Research. All Rights Reserved.

Editor-in-Chief:

Dr. Ewelum Johnson Nnadi

Managing Editors:

1.Harold Jan R. Terano

2.Dr. Mandakini Singla

3.Massoud Kaykhaii







ko‘nikmalarining yetarli emasligi muammolarni kuchaytirishi mumkin. Er yoki xotinning uzoq vaqt boshqa hudud yoki davlatda ishlashi muloqotning kamayishi, hissiy uzoqlashish va tarbiya mas’uliyatining bir tomon zimmasida qolishiga olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonda genderga asoslangan zo‘ravonlik holatlarining katta qismi oilaviy muhitda sodir bo‘lishi qayd etilgan. Ayrim ma’lumotlarda ayollar va qizlarga nisbatan qayd etilgan zo‘ravonlik holatlarining 7 600 dan ortig‘i oilalarda sodir bo‘lgani, ushbu holatlarning qariyb 5 920 tasida tajovuzkorlar erlar bo‘lgani ko‘rsatiladi. Bu raqamlar oilaviy munosabatlar buzilishida gender kuch munosabatlari va zo‘ravonlik masalasining alohida ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.[2] Zamonaviy jamiyatda ayollarning ta’lim olish, kasbiy faoliyat yurritish va iqtisodiy mustaqilligining ortib borishi oiladagi an’anaviy rollarning o’zgarishiga olib keladi. Biroq ayrim hollarda ayollardan bir vaqtning o’zida ham professional faoliyatda, ham uy va farzand tarbiyasida yuqori mas’uliyatni bajarish kutiladi. Bu esa oilada psixologik bosim, tushunmovchilik va nizolarni kuchaytiruvchi omillardan biri bo’lishi mumkin. oilaviy munosabatlarning barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ishsizlik, doimiy daromadning yetishmasligi, uy-joy muammosi, qarzdorlik va oilaviy xarajatlarning ortishi er-xotin o‘rtasida kelishmovchiliklarni kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, moddiy masalalarni birgalikda muhokama qilish va oilaviy byudjetni oqilona boshqarish ko‘nikmasining yetishmasligi nizolarni chuqurlashtiradi.

Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi oilaning huquqiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy tamoyillardan biridir. Shu sababli oilaviy nizolarni kamaytirishda nafaqat huquqiy mexanizmlar, balki gender tengligi va huquqiy madaniyatni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega.[3] O’zbekistonda oilaviy munosabatlar gender jihatlarini o’zgarishida an’anaviy gender rollar, ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar, oiladagi mas’uliyatning taqsimlanishi, qaror qabul qilishdagi tenglik, gender stereotilarini kompleks tarzda tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil yangi tahriri)
2. O’zbekiston Respublika Oila kodeksi 01.09.1998
3. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-561-son, 2019-yil 2-sentabr
4. World Bank. Uzbekistan: Gender-Based Violence and Protection of Women. World Bank documents.
5. Asian Development Bank. Gender Expertise of the Family and Labour Codes of the Republic of Uzbekistan. Manila: Asian Development Bank, 2008.

[2] World Bank. Uzbekistan: Gender-Based Violence and Protection of Women. World Bank documents.

[3] Asian Development Bank. Gender Expertise of the Family and Labour Codes of the Republic of Uzbekistan. Manila: Asian Development Bank, 2008.